

YAGONASAN, MUQADDAS VATANIM, SEVGI VA
SADOQATIM SENGA BAXSHIDA, GO'ZAL O'ZBEKISTONIM!

www.tongyulduzi.uz

TONG YULDUZI

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:29-30 (66986-87)
2014-yil
21-iyul



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

— Kitob bizga
doimiy hamroh,
deydi
Qashqadaryo
viloyati, Qamashi
tumanidagi
28-umumta'l'm
mektebinining
8-«A» sinf
o'quvchisi Hulkar
XIDIROVA.



BUYUK
YURT
FARZANDLARIMIZ

«YASHIL CHIROQ

So'nggi yillarda
respublikamizda
bolalar ishtirokidagi
yo'l hodisalarining
oldini olish yuzasidan
keng ko'lamli
tadbirlar amalga
oshirilmoqda.

(Davomi 3-betda)

2014»



Ushbu sonda:

«NAFOSAT»DA
BIR KUN

2-bet

BUGUNNING
BOLASI

4-bet

Ingliz tilini
o'rganamiz!
Let's learn
English!

5-bet

ABDULQODIR
1-SINFGA
QABUL QILINDI

7-bet

«NAFOSAT»DA BIR

Qalbimizga quvonch baossh etdi

Farg'ona vodiysi o'zining so'limg tabiat bilan respublikamiz viloyatlari ichida alohida o'rinn tutadi. Vohaning qadim shaharlaridan biri Qo'qonda bir necha yildan buyon 12-Mehribonlik uyi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Mehribonlik uyi faqatgina ta'lim va tarbiya beruvchi muassasa bo'libgina qolmay, balki tarbiyalanuvchining ijtimoiy huquq va manfaatlarini himoyalovchi maskan hamdir. Bunda tarbiyalanuvchilarning yashashi va

N. SULTONOV o'lgan suratlar



ta'lim-tarbiyasi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Hozirgi kunda Rahbarxon Mirzayeva singari fidoyi pedagog rahbarlik qilayotgan jamoa sa'y-harakatlari bilan Mehribonlik uyining moddiy-teknika bazasi kundan kunga mustahkamlanib bormoqda. Homiylarning beminnat ko'maklari bilan ko'plab xayrli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, maskan tasarrufidagi «Nafosat» yozgi sog'lomlashtirish oromgohida oshxona, omborxona, shuningdek, zamon talablariga javob beradigan 100 o'rinni yotoqxona binosi, tibbiy bo'lim yigandan qurilib, foydalanishga topshirildi.

Joriy yil Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni arafasida mazkur oromgohda jahon standartlariga to'liq javob beradigan cho'milish havzasini, yuvinish xonalarining barpo etilishi bolalarga munosib bayram sovg'asi bo'ldi.



Mavsum davomida guruhlar o'tasida «Sog'lom bola - yurt kelajagi», «Shahrim jamoli», «Sog' tanda - sog'lom aql», «Kitobim - oftobim», «Kuch - bilim va tafakkurda», «To'p darvoza ichida» hamda «Sening tug'ilgin kuning» mavzularidagi tadbirlar ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Tarbiyalanuvchilarning ustozlari boshchiligidagi Buxoro shahriga sayohatlari yanada quvonchli bo'ldi.

Nurbek QIDIRALIYEV

«PESHOG'OR»GA SAYOHAT

Jizzax viloyati, Zomin tumanida joylashgan general Yorulla Norbekov nomidagi bolalar sog'lomlashtirish oromgohida dam oluvchilarning har bir kuni sermazmun o'tmoqda.



Bu yerda hordiq chiqarayotgan 150 nafar o'g'il-qizlarning sho'x-shodon kulgulari bundan dalolat.

Yaqinda oromgohda dam olayotgan bolajonlar tumandagi qadimiy yerosti obida - «Peshog'or»ga sayohat uyuştirishdi. Sunnatulla Ahmedov boshchiligidagi yosh sayohatchilar Morguzor tog' tizmalarini bo'ylab yuqoriga ko'tarilisharkan, tevarak-atrofning yashillikka burkanganligidan dillari yayradi.

Guruh a'zolari mash'ala yordamida ichkariga odimlarkan, g'or sahni kengayib borar, uch-to'rt odim narini ko'rib bo'imsadi. Ba'zan bolajonlar ensiz va tor yo'laklardan emaklab o'tishlariga ham to'g'ri keldi.

Yosh sayohatchilar g'orning noma'lum bo'shlilardan o'tib, yorug'lik sari yaqinlashayotganida quyosh ufgqa bosh qo'ymoqda edi. Ularning safari shu yerda yakun topdi. Shu tobdan barchaning ko'nglida xotirjamlik, yuz-ko'zlarida esa mammunlikni sezish qiyin emasdi...

Eng muhimi, bolajonlar sayohat davomida qadimiy yerosti obidisini sir-sinoati va g'aroyib mo'jizalari bilan yaqindan tanishishga tuyassar bo'lishdi.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati

Yaqinda poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 260-umumta'limg maktabida faoliyat yuritayotgan yozgi oromgohda bolajonlarning sportga bo'lgan qiziqishini yanada mustahkamlash maqsadida musobaqa o'tkazildi.

Unda tumandagi umumta'limg maktablarini o'quvchilari g'olib bo'liblik uchun bahs olib bordilar.

Dastlab 9 yoshli o'quvchilar



o'tasida estafeta, 10 yoshli o'quvchilarning arqon tortish bellashuvlari hamda 11 yoshli o'quvchilar ishtirokida futbol musobaqasi, 7-8 yoshli o'quvchilar o'tasida asfalta rasm chizish bellashuvlari o'tkazildi.

Qizlar o'tasida bo'lib o'tgan estafeta bellashuvlari 260-umumta'limg maktabini o'quvchilari g'oliblikni qo'lga kiritishdi. O'g'il bolalar bahsida esa durang natija qayd etildi. Futbol musobaqasida 21-umumta'limg maktabini o'quv-



**BUYUK
YURT
FARZANDLARIMIZ**

maktabi o'quvchisi Muhiddin Umirov birinchi, 21-umumta'limg maktabini o'quvchisi Omina Zokirova va 260-umumta'limg maktabini o'quvchisi Anjelina Karimova ikkinchi o'rinni egallashdi. Uchinchi o'rinn esa 21-umumta'limg maktabini o'quvchilari - Nafisa va Robiya Qobulovalarga nasib etdi. G'oliblarga homiylar tomonidan esdalik sovg'alari hamda faxriy yorliqlar topshirildi.

Muzaffar AHMEDOV.
M. AZIMOV o'lgan suratlar





(Davomi. Boshi 1-betda)

«YASHIL CHIROQ - 2014»

Yaqinda Jizzax viloyatida bo'lib o'tgan «Yashil chiroq - 2014»

Respublika yosh avtonazoratchilar musobaqasi ham shular jumlasidandir.

Respublika bosqichidagi ushbu tanlovda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlardan yosh yo'l nazoratchilar jamoalari ishtirok etishdi.



Yo'l harakati qoidalarini targ'ib qiluvchi bannerlar, turli ko'rgazmalar bilan bezatilgan oromgohning tadbirlar o'tkaziladigan maydoni musobaqa qatnashchilariga o'zgacha shukuh bag'ishladi. Musiqa sadolari ostida tanlov ishtirokchilari maydon uza saf tortildilar. Jamoa sardorlari slyotning ochilishiga bag'ishlangan tantana hamda ushbu musobaqaqa tayyor ekanliklari haqida raport berar ekan, hay'at raisi Mansurjon Rixsiyev ishtirokchilarni qutlab, tanlov shartlari bilan tanishtirdi.

Yosh yo'l nazoratchilar «Piyodalar harakati», «Harakatni tartibga solish», «YTHda jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam», «Yosh velosipedchi», «Tartibga solingan chorraha maktejni yasash», «Radio to'lninlar



orqali boshqariladigan transportlar harakati», «Yo'l harakati qoidalarini targ'ib qiluvchi guruhlarning chiqishi» kabi turlar bo'yicha o'zaro bellashdilar. Musobaqa natijalari maydonga o'matilgan maxsus ekranada yoritib borildi. Bu esa bellashuvning adolatli o'tishini ta'minladi.

Tanlov yakuniga ko'ra, 95 ball to'plagan jizzaxlik qatnashchilar oliy o'rning munosib ko'rildi. Poytaxtlik o'quvchilar 92,5 ball bilan birinchi, Xorazm viloyatidan kelgan yoshlar ikkinchi, qashqadaryoliklar esa uchinchi o'rning sazovor bo'lishdi.

Slyot davomida YHQ va amaliy mashg'ulotlarda chuquq bilimga ega bo'lgan xorazmlik Yulduz Otabekova, samarqandlik Nilufar Naimova, buxorolik

Muharram Hasanova hamda poytaxtlik Nilufar Rixsiboyeva tadbir tashkilotchilarining qimatbaho sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

Musobaqa yakunida «Yashil chiroq - 2015» an'anaviy slyoti Samarqand shahrida o'tkazilishiga kelishib olindi.

Tohir MULLABOYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist



MUQADDAS GO'SHA

Inson borki, yuragingin tub-tubida ona Vatanga bo'lgan bitmas-tugannas mehrumabbat, sadoqat mujassam.

Vatan - g'oyatda ulug' tushuncha, uning ma'nomazmunini, qadr-qimmatini so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. U tug'ilib o'sgan makon, kindik qonimiz to'kilgan aziz maskandir.

Men mana shunday jannatmonand yurtda voyaga yetayotganidan faxrlanaman.

Zarnigor JO'RAYEVA,
Farg'on'a viloyati, O'zbekiston tumanidagi 38-umumta'lim maktabi o'quvchisi

XARID UCHUN CHEK OLASIZMITS!

O'tgan hafta uyimiz yaqinidagi do'kondan sharbat sotib oldim. Kechki ovqatdan so'ng uni ichish uchun qopqog'i ni ochdim. Shu payt idishning og'zidan ko'pik chiqib, atrofga noxush is taraldi.

Ertasi kuni do'konga borib, surtuvchiga sharbat eskirib qolganini, u iste'molga yaroqsizligini aytdim. Ammo

u «Sen olmasang, boshqasi olib ketaveradi, qani, xariding uchun cheking bormi?» dedi. Men kechagi xaridim uchun chek olmaganimdan afsuslandim. Aynilsa, dadamning oldida uyalib qoldim.

Mahliyo MAMATOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qamashi tumanidagi

24-umumta'lim maktabi o'quvchisi

BUVIM TANBEH

BERDI

Uylarni supurib
bo'lgach, yig'ilgan
chiqindini qopchaga
soldim-da, hovlimiz
etagidan oqayotgan
anhorga tashladim.

Baxtingma ko'chada
ham, anhor atrofida ham
hech kim ko'rinnadi.

Ko'rsa ham nima
bo'ladi? Ko'pchilik
shunday qiladik-ku.

Uyga kirib, endi darvozani qulflay deb turganimda,

eshikdan buvijonim
kirib keldilar.

Ular juda horg'in
ko'rindilar.

- Bir

piyola suv ber, nafasim
bo'g'ilib ketayapti, - dedilar
hansirab.

Darhol bir piyola suv keltirdim-da, ularga uzatdim.

- Mana, buvijon, ichib oling. Shu yoshingizda sekinoq yursangiz bo'lmaydim, qarang, charchab ketibsiz, - dedim ularga rahmim kelib.

Sekinoq yurganimda, sening boyagi qilgan ishingni ko'rmagan bo'lardim.

- Qaysi ishimni,

toza bo'lsa, mahalladoshlarimiz ham sog'gom bo'ladi.

Men qilgan ishimdan afsuslanib, buvijonimdan uzr so'radim.

Aziz dugonajonlar, siz ham mahallangizdagi anhor, ariglarga zinhor chiqindilarni tashlamang.

Gulchehra
UBAYDULLAYEVA,
O'zDJTU qoshidagi
2-akademik litseyi
o'quvchisi

Umarbek Fayzullayev Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi 31-umumta'lim maktabining 7-«B» sinfiga o'qiydi. Ayni ta'til kunlari u otanasiiga uy ishlardida qarashyapti. Shu bilan birga, badiyi kitoblar, gazeta va jurnallar o'qish, rasmlar chizishga ham vaqt topayapti.



Umarbek vaqtini behuda o'tkazishni yoqtirmaydi. Tengdoshlaridan, hatto qo'shni uka-singillaridan ham shuni talab qiladi. Shundanmi, ustozlari, sinfdoshlari, qo'shnilarini uni hurmat qilishadi. Darvoqe, u ta'til kunlari mahalladagi bolalarga o'qish, yozish, rasm chizishni o'rgatishni ham o'zining sevimli mashg'uloti deb biladi.

Marhamat, uning chizgan rasmlariga o'zingiz baho bering.

Matyoqub NARZIYEV



OROMGOH KEYINGI YILGA ...



«Tog' shalolasi» oromgohida dam olish maktabimizdagi har bir o'quvchining orzusi.

Ulkun tog' etagidagi quyuq archazorlar orasida joylashgan bu maskanning salqin havosi Jonning rohati. U yerdagi buloqlarning suvi toza, biroz qo'lingizni tutsangiz, muzlab qolganday bo'ladi. Ammo hozir sizga boshqa voqeа haqida gapirib bermoqchiman.

Abror degan qo'shnimiz bu yil sakkizinchisinfni bitirdi. O'qishlari a'lo. Biroz sho'xligiyam yo'q emas. Shunga qaramagi, maktabdagisi jamoat ishlardira juda faol. Mana, bir haftadirki, uning og'zi qulog'ida. Negaki, uning otasi oromgohning ikkinchi navbatiga dam olish uchun yo'llanma olib kelgan. Yana qayerga deng? «Tog' shalolasi»ga.

Nihoyat, Abror kutgan kun ham yetib keldi. Ertaga saharlab jo'nab ketishadi. U nonushtani apil-tapil qilganicha onasidan ruxsat so'radi.

— Oyi, Sobirnikiga o'tib kelay. Keyin boshqa o'rtoqlarim bilan ham xayrlashib kelmoqchi edim.

Onasining avvaliga ruxsat bergisi kelmadi. Keyin esa 5–10 kun uyda bo'lmaydigan o'g'lining ra'yiga qarshi chiqolmadi. Shunday bo'sada, har doimigidek ogohlantirdi.

— Uzoq qolib ketma. Kunning issiqligini qara, boshingdan oftob o'tib ketmasin. Yana o'rtoqlaring bilan cho'milishga ketib qolmagin.


— Bo'pti, oyijon, — dedi Abror onasi ruxsat bergandan xursand bo'lib.

Sobirning uyi qo'shni mahallada. Abror ularnikiga borganida

o'rtog'i bog' etagidagi olcha daraxting tepasida ekan. U do'stining kelganidan xursand bo'lib ketdi.

— Tezroq yonimga chiq, — dedi Abrorni tepaga imlab. Keyin esa oldidagi shoxga ilingan chelaklarga ishora qildi.

— Oyim kompot qaynatarkanlar, ikki chelak olchani qachon terib bo'laman,



BUGUNNING

BOLASI

Kuni kecha dugonam Feruzaxon mendan yaqin bir tanishinikiga birga borib kelishni so'radi. Borgan xonadonimizda bizni iliq kutib olishdi. Hol-ahvol so'rashgach, suhabatimiz o'z-o'zidan qovushib ketdi. Bu orada xonadondagi ko'zlar chaqnab turgan, 10 yoshlar atrofidagi bolakay diqqatimni tortidi.



Yigitchaning ismi Xo'jayorbek bo'lib, u Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi 18-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi ekan. Hozir ta'til bo'lgani sabab, u buvusi Keldiyor akaning uyiga mehmonga kelibdi.

Keldiyor aka nabirasidan Mirzo Bobur g'azallaridan birini aytib berishni so'radi. Xo'jayorbek buyuk bobomizning g'azalini shunday ifodali aytib berdiki, bundan beixtiyor hayratga tushdik.

Xo'jayorbek yoshligidanoq juda iqtidorli bo'lib, bunga oilada o'tkaziladigan «Kim ko'p she'r aytadi?» nomli she'rxonlik kechalari sabab ekan. U bugunga qadar yosh ijodkorlar o'rtasida o'tkazilgan «Marhabo talantlar», «O'zliging namoyon qil» nomli tanlovlarda ishtirot etib, g'olib bo'libdi. Shuningdek, iste'dodli tengdoshingiz joriy yil poytaxtimizdagi «Istiqlol» san'at saroyida o'tkazilgan «Buyuk ajoddalar vorislarimiz» konserst dasturida ishtirot etib, katta sahnada ham o'z iqtidorini namoyish etibdi.

Biz Xo'jayorbekka omadlar tilab, bu xonadondan iliq xotiralar bilan qaytdik.

Gulchehra KARIMOVA

deb turuvdim. Kelganing yaxshi bo'ldi. Terib bo'lsak, menga ham ruxsat beradilar.

Ikki o'toq bir zumda chelaklarni to'ldirishdi. O'zlar ham olchaga rosa to'yishdi.

Ko'chaga chiqqanlarida esa issiq zaptiga olayotgan edi. Sobir ko'ylagi tugmalarini yechib yelpina boshladi.

— Azamat bilan Shuhuratniyam chaqiraylik. Birgalashib Ergash buvaning o'rikzoriga o'tamiz. So'ng bog'ning orqa tomonidagi zovurda cho'milamiz.

— Mayli, — dedi Abror. — Lekin men unday joyda cho'milmayman. Oyimga ham va'da berganman. Qara, televizorda duch kelgan joyda cho'milmanglar, deb qayta-qayta aytishyapti.

— O'zing bilasan, — dedi Sobir qo'l siltab.

Ergash buvaning bog'ida to'rtovlon mazza qilib o'rik yeyishdi. Keyin esa Sobir hammani zovur tomon boshladi. Zovur suvi loyqalanib oqayotganiga

qaramay, Sobir kiyimlarini yechib, suvgaga o'zini tashladi. Azamat bilan Shuhurat ham unga qo'shildi.

— Suv mazza ekan, cho'milsang-chi, — dedi Azamat Abrorning havasini keltirib.

— Yo'q, men cho'milmayman, — dedi Abror o'midan turib soyaroq joyga

o'tarkan.

— Uning onasi cho'milishga ruxsat bermaydi, — deya Sobir hovuchiga suv olib unga sepd. Uning gapi Abrorni g'ururiga tegdi. Kiyimlarini yechdi-da, o'zini suvgaga otdi. To'rtovlon holdan toyugchaga suvda quvlashmacha o'yashadi.

Abror ugya kelganida onasi tushlikni tayyorlab turgan ekan. O'g'lining sho'r bosqan qo'llarini ko'rib, biroz jahli chiqdi.

— Yana loyqa suvda cho'mildingmi, bolam? Qara, hamma joying sho'r bo'lib ketibdi.

Abror tezda yuvinib olib, dasturxon boshiga keldi. Onasi uzatgan kosani qo'liga olib yog'likkina sho'rvadan bir ikki ho'pladi-da:

— Ovqat yegin kelmayapti, — dedi kosani sal nari surib. — Keyinroq yerman.

Abror onasidan ruxsat olib, xonasiga kirib o'miga cho'zildi.

Kechiga borib uning tobi qochib qoldi. Onasi kirganida Abror terga botgancha o'mida g'ujanak bo'lib yotardi.

— Nima bo'ldi, bolam? Nima yeganding?

— Sobirnikida olcha yedik, keyin Ergash buvaning o'rikzoriga bordik, — dedi Abror past ovozda.

— Ishqilib, mevalarni yuvib yedinglarmi? — dedi onasi xavotirlanib.

— Daraxtdan uzib yedik, — dedi Abror og'riqdan yuzlari burishib. — Keyin zovurdayam cho'mildik.

O'sha kuni u tonggacha uxlolmay o'mida to'lg'anib chiqdi. Ertasi kuni saat to'qqizlarda ko'cha boshidagi maktab oldida turgan avtobus balornali olib oromgoh tomon yo'lg'a tushdi. Abrorlarning uyi oldida turgan «Tez yordam» mashinasiga birov e'tibor berdi, birov esa yo'q...

Yusuf ABDULLAYEV

Once there was a wise King. He had two sons. He appointed eminent scholars to teach them all arts. After few years of teaching, the King fell ill badly. So, he wanted to select his next King for his Kingdom. He wanted to test his sons' abilities.



(Story)

He called both of them and gave a room to each of them. He said, «You must fill this room completely with anything you

wish. It can be anything! But there should be no space left behind and you should not seek the advice from anyone!»

The next day the king visited to the elder son's room. The room was completely filled with hay. The king sighed on the foolishness of the elder son.

Then he went to the younger son's room. But it was kept closed. The king knocked at the door of the room. The second son asked his father to get in and closed the door again. There were darkness everywhere and the king shouted at his second son angrily. But the second son lighted a candle and said, I have filled this room with light!» now the king felt very happy and

hugged his son proudly. He understood that the younger son would be the right person to rule the Kingdom after the king.


NEW WORDS:

Appoint - tanlamoq
Eminent - atoqli
Select - tanlab olmoq
Ability - qobiliyat
Space - bo'sh joy
Seek - so'ramoq
Hay - xashak
Foolishness - ahmoqlik
Candle - sham
Hug - quchoqlamoq
Proudly - g'urur bilan
Rule - boshqarmoq

IT'S A GOOD WAY OF TO LEARN ADJECTIVES AND VERBS

Look at these words and separate them into 4 groups.

Example:



O'ZDJTU qoshidagi 1-akademik litseyi o'quvchisi
Nozima YO'L DOSHEVA tayyorladi

«The world is a book and those who do not travel read only one page». So my dear friends try to learn and read more and you will have more meaningful pages in your life.

Aziz o'quvchilar, biz sizlar bilan ingliz tili sahifasida antonim va sinonim so'zlar bilan tanishib kelyapmiz, keling, yana ulardan yodlab so'z boyligimizni oshiramiz.



Ushbu so'zlarning antonimlarini toping:

dark -
..... - hard
neat -
..... - dry
full -
..... - cheap
straight -
..... - narrow
easy -
..... - quite

light, empty,
crooked, noisy,
wide, expensive,
wet, messy, soft,
difficult

RIDDLE

It's an animal, similar to the horse,
It has got a tail, four legs and black stripes.



Dinara SHAKIROVA tayyorladi

Nurulloh DOSTON

QO'RQMAS ULOQCHA

Dikir-dikir ulog'im,
Mening uzun qulog'im.
Yolg'iz ketding qo'radan,
Qo'rqmaysanmi bo'ridan?

- Buyam suruv serkasi,
Men-chi, uning erkasi.
Dikirlagan poshnam bor,
Bo'ribosar oshnam bor.

KO'KDA UCHUVCHILAR

Ko'kda uchar ko'p qushlar,
Turli-tuman, to'p qushlar.
Yana uchar, qaragin,
Mening ulkan varragim!

POLIZDA

Olabayroq, mallato'n,
Yastangan dala-tuzlar.
Bojalarni kutadi,
Pistirmada tarvuzlar.

NOVVVOY

Katta novvoymen,
Katta ko'chada.
Bir tatab ko'ring,
Shirin kulchadan.
Buyurtma bering,
kasbim suyaman.
Quyosh taftida,
Har kun kuyaman.
Yopgan nonlarim,
Asl shirmoydan.
Hozircha faqat,
Xamirim loydan.

YAPON XO'ROZI

Kichik dema akangni,
Qochirganman dakangni.
Qo'shnimizni huv qishda,
Qochirdim bir cho'qishda.
Boboq xo'roz, chipordan,
Marjontovuq, xumordan,
Bilmox bo'lsang farqimni -
So'rab ko'rgin narximni!



BOG'IMDAN GUL TERDIM

Sovg'a uchun dunyoda,
Guldan ortiq nima bor?
Bog'imidan gul terib,
Tokchaga qo'ydim qator.

Xonamiz fayzli bo'lib,
Quvonchlargo to'ldilar.
Zavq bergan gul sababli,
Buvim xursand bo'ldilar.

O'zidek dilda ko'rkam,
Manzaralar yaratib.
Gullar ko'zni quvnatir,
Xushbo'y hidlar taratib.

Guldan bo'lak, hozir, ha,
Ne sovg'a qilsak, kamday.
Buvijonim tug'ilgan
Kun o'tsin zo'r bayramday.

Fotima JO'RAQULOVA,
Jizzax viloyati, Paxtakor
tumanidagi 6-umumta'l'm
maktabining 4-sinf o'quvchisi



DONG'I DOSTON VATAN BU

O'z yurtimda baxtiman,
Qasr, ko'shkli, taxtiman.
Ruhim baland, vaqtim chog',
Mag'ur o'zbek otliman.

Dong'i doston Vatan bu -
Bizga faxr, chaman bu -
Farovon, soz yashaymiz,
Hurlikka jon-u tan bu.

Moviy, shaffof, keng osmon,
Zaminimiz, tinch, sokin.
Yangrar mehnat qo'shig'i -
Elim yayrar, dil yorqin.

Zilol suvli jilg'alar,
Yashnab turar dalalar.
Misli jannatmonanddir,
Madhi mag'rur kuylanlar.

Nomi yangrar tillarda,
Havas qilar keng jahon.
Yashar mangu dillarda,
Ona yurt O'zbekiston!

Zebuniso BO'RIYEVA,
Surxondaryo viloyati,
Sherobod tumani

MENING BAXTIM

Mening baxtim erur borligim,
Omad mena doim yorligi,
Mening baxtim aql-idrokim,
Omadim, baxtim borligi.

Mening baxtim, sho'x ukalarim,
Qondoshlarim mehribonligi.
Mening baxtim, tinch-totuvlikda,
Ota-onam sog'-omonligi.

Mening baxtim gullagan Vatan,
Va farovon hayot yo'limdir.
Mening baxtim sog'dir jon-u tan,
Charchoq bilmas ikki qo'limdir.
Mening baxtim tongda yuz ochgan,
Nafis gullar boshini silash.

Mening baxtim uyqusi qochgan,
Oymomaga yorqin nur tilash.

Mening baxtim har bir kurtakda,
Ochilajak olamga boqish.
Mening baxtim ko'kka tizilib,
Turnalarga unsiz qo'l qoqish.

Mening baxtim aslim, o'zligim,
Tan olindi yurtim jahonda.
Ona xalqim, shin so'zligim,
Tug'ilganim O'zbekistonda.

Xursanoy KARIMOVA,
Respublika ixtisoslashtirilgan
musiqa va san'at akademik
litseyining 9-«E» sinf o'quvchisi

Kuchukcha ancha tetiklashib qolgan
edi. U bilan rosa o'ynadik. Unga
«Olapar» deb nom qo'yidik.

Ertasi kuni maktabga borib,
o'trog'imning kayfiyatni yo'qligini ko'rib,
undan xomushligining sababini
so'radim. Shoberdi: «Endi Olaparni
uyimizda olib qololmayman. Oyim ona
tili fanidan olgan »3» bahoimni ko'rib
qoldilar. «Hammasisa, dars
tayyorlamay kuchukcha bilan o'ynab
yurishing sabab», deb Olaparni boshqa
yoqqa olib borib tashla, deb
tayinladilar», dedi.

edi. U biz tomon
talpinib kela boshladi.
Kuchukchaga juda rahimiz
keldi. Shoberdi:

- Hozir uni shu yerda qoldirsak
ochlikdan yoki sovuqdan o'lishi tayin,
dedi.

O'rtog'imning uyi yaqinligi sabab
kuchukchani unikiga olib bordik.
Unga darhol sut berib, uycha
yasadik. Ertasi kuni maktabda
Shoberdidan kuchukchaning
ahvolini so'radim. U juda
yaxshi ekanligini aytdi. Men
tezroq darslar tugashini, so'ng
kuchukchani ko'rgani borishni
xohlardim.

Darsdan so'ng uyimizga
keldim va onamdan ruxsat olib
do'stimnikiga yugurdim.

O'ylab-o'ylab, Olaparni uyimizga
olib keldim. Har kuni unga sut, non
berib boqdim. 4-5 oydan so'ng Olapar
katta bo'lib qoldi. Hozirda u bilan
do'stlashib olganman. Olaparni hatto
oilamizdagilar ham yaxshi ko'rib
qolishganidan xursandman.

Zokir OMONOV,
Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on
tumanidagi 49-umumta'l'm
maktabining 5-sinf o'quvchisi

OLAPAR

(Hikoya)

nishidan kimdir
ataylab tashlab ketgan



ABDULQODIR 1-SINFGA QABUL QILINDI

Tahririyatimizga kirib kelgan bolakay o'zini Abdulqodir Begaliyev deb tanishtirdi. U hali yosh bo'lishiga qaramay, sport sohasida talaygina yutuqlarni qo'iga kiritibdi.

Abdulqodir bu yil poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 17-ingiz tiliga ixtisoslashtirilgan umumta'l im maktabining 1-sinfiga qabul qilinibdi. Undan erishgan muvaffaqiyatlari haqida so'raganimizda, quydigilarni so'zlab berdi:

— Onamning aytishicha, go'dakligimda juda ko'p kasal bo'lgan ekanan. Shifokorlar onamga meni biron bir sport to'garagiga berishni maslahat berishibdi. Shunda ular meni «Jar» sport sog'iomlashtirish majmuasi qoshida tashkil etilgan karate to'garagiga olib keldilar. Dastlab ustozimiz Jasur aka Jamilov yordamida qo'l, oyoq harakatlarini qunt bilan o'rganib, asta-sekin murakkab mashqlarga o'ta boshladim. Tuman, shahar miqyosidagi ko'plab musobaqlarda qatnashdim. Eng quvonarisi, iyun oyining so'nggi kunlarda qizil belbog' sohibi bo'ldim,

— deydi Abdulqodir quvonch bilan.

Tengdoshingiz kelajakda ota-onasi singari shifokorlik kasbini egallamoqchi ekan.

— Shifokorlik yaxshi kasb, ammo sport bilan shug'ullanishni hech qachon tashlamayman. Kelajakda qora belbog' sohibi bo'lib, jahon championatida yurtim sha'nini munosib himoya qilish niyatidaman, — deydi yosh sportchisi.

Biz Abdulqodirning bu gaplarini nokamtarlikka yo'yadik, chunki bugun yurtimizning har bir farzandi yuksak orzularni maqsad qilgan. Quvonarisi, ular kelgusida o'zlarini egallagan bilim va ko'nikmalar asosida ona Vatanimizning nomini ko'kka ko'tarishga bel bog'laganlar. Biz ularning orzu-umidlari ushalishiga tilakdoshmiz.

O. TURSUNBOYEVA

Poytaxtimizda suzish bo'yicha 14 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar o'rtaida O'zbekiston championati yakunlandi. Unda 450 nafarga yaqin yosh sportchi g'oliblik uchun kuch sinashdi.

CHEMPTIONAT YAKUNLANDI



Musobaqaning so'nggi kuni Go'zal Sobirova, Aziza Mirmonova, Fotima Solih, Olga Zelinskaya, Nigora Mirzohidova, Valeriya Muratova, Komila Salimova hamda Asal Azimova shohsupaga ko'tarildi.

Bunday musobaqalar yoshlarning tajriba va mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda xalqaro miqyosdagi nufuzli musobaqlarda ishtirot etib, mamlakatimiz bayrog'ini yanada yuksaltirishga hissa qo'shishga zamin yaratadi.

«SAMANBOY» VA «MARKAZOBOD» LIKLAR G'OLIB

«Mahalla» xayriya jamoat fondi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi, Kasaba uyushmalari birlashmasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan qator davlat va nadavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan musobaqada 12 ta futbol jamoasi Nukus shahrida «Futbolimiz kelejagi» an'anaviy turnirining Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichi g'olibini aniqlash uchun maydonga tushishdi.

«Futbolimiz kela-jagi» turniri mahalla yoshlarining bo'sh vaqtini mazmuni tashkil etish, ular o'rtaida futbolni yanada ommalashtirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Musobaqada Nukus tumanidagi «Samanboy» ovul fugarolar yig'ini yoshlari mahorat bobida tengqurlardan ustun ekanini namoyish etdi. Ular 9 – 10 va 13 – 14 yoshdagi futbolchilar o'rtaida bosh sovrinni qo'liga kiritdi. 11 – 12 yoshli sportchilar o'rtaida esa To'rtko'l tumanidagi «Markazobod» mahalla fugarolar yig'ini vakillari birinchi o'rinni egalladi.

G'olib jamoalar turnirning Xorazm viloyatida o'tkaziladigan mintaqaviy bosqichida ishtirot etadi.

BOXCHILARI MIZDAN 8 TA MEDAL

Yaqinda boks bo'yicha O'zbekiston yoshlar terma jamoasi Serbiyada bo'lib o'tgan «Voyevodining oltin qo'lgoplarini» nomli xalqaro musobaqada muvaffaqiyatlari ishtirot etib, yurtimizga yorug' yuz bilan qaytib kelishdi. Turnirda dunyoning 24 daylatidan kelgan yosh charm qo'lgop ustalari g'oliblik uchun bahs olib bordilar.

Aytish mumkinki, bu yil o'ttiz ikkinchi bor tashkil etilgan ushbu nufuzli turnirga sportchilarimiz jiddiy tayyorgarlik ko'rdilar. Har bir vazn toifasi bo'yicha saralab olingan iqtidorli bokschilar malakali murabbiy Marat Qurbonov qo'l ostida bir nechta muhim mashg'ulotlarda ishtirot etishdi. Natijada, musobaqaqa yo'l olgan 11 nafar sportchimizdan 8 nafari sovindorlar safidan o'rinn egalladi.

Jumladan, terma jamoamizning yetakchi bokschilari – Abdulhay Shorhamatov (-56 kg) va Kozimbek Mardonov (-75 kg) o'z vazn toifalarida barcha raqiblaridan ustun kelib, oltin medalga sazovor bo'ldi. Quvonarisi, har ikki bokschimizning musobaqadagi ishtiroti muxlis-u mutaxassislarda katta taassurot qoldirdi.

Iqtidorli bokschilarimiz – Sulaymon Latipov (-52 kg) hamda Mahmud G'oipov (-69 kg)ga final bahsida biroz omad yetishmadи va yakunda ular turnirning kumush medallari bilan taqqirdilar.

Bundan tashqari, Bobirmirzo Tolipov (-60 kg), Bektemir Meliqo'ziyev (-75 kg), Obidjon Tohirova (-81 kg) va Rahmatilla G'ofurov (+91 kg) o'z vaznlarida bronza medall sohibi bo'ldilar.

Bugun shuni quvonch bilan aytishimiz kerakki, bokschilarimizning ushbu muvaffaqiyati zamirida mamlakatimizda bolalar sportiga qaratilayotgan yuksak etibor. Siz farzandlarimizning iqtidor va qobiliyatizingiz ro'yobga chiqarish uchun yaratib berilayotgan sharh-sharoitlar mujassam. Shunday ekani, Siz han bo'sh vaqtini behuda sarflamay, ana shu imkoniyatlardan unumli foydalaning va sportda ulkan marralarni zabt eting.

YOSH POLVONLAR BAHSI

Yozgi ta'tilning qaynoq damlari Sizga olam-olam zavq ularashotgan ayni damlarda ko'plab tengdoshlarigiz turli sport musobaqalarida ishtirot etib, o'z iqtidorini namoyon etmoqda. Kuni kecha Navoiy shahrida o'smirlar o'rtaida bo'lib o'tgan «Mahallamiz pahlavonlari» sport musobaqasining viloyat bosqichida ham ana shunday tengdoshlarigizdan bir guruhi g'oliblik uchun kuch sinashishdi.

«Mahalla» xayriya jamoat fondi Navoiy viloyati bo'limi, madaniyat va sport ishlari, ichki ishlari, sog'iqliq saqlash, xalq ta'limi boshqarmalari hamkorligida tashkil etilgan bellashuvlarda yosh sportchilar 6 vazn toifasida gilamga chiqib, muxlislarga biridran murosasiz bahslarni taqqid etishdi.

Musobaqa yakunida Navoiy shahridan Abbas Mahmudov va Muxlisa Normo'minova, xatirchilik G'ayrat Usmonov, karmanalik Kamola Aktamova, Navbahor tumanidan Gulbahor Murodova, uchquduqlik Asadullo Abdullayev o'z vazn toifalarida birinchi o'ringa sazovor bo'ldi.

G'oliblar musobaqaning respublika bosqichida ishtirot etish huquqini qo'nga kiritdi.

Sa'dullo TURSINOV



Aytish mumkinki, bu yil o'ttiz ikkinchi bor tashkil etilgan ushbu nufuzli turnirga sportchilarimiz jiddiy tayyorgarlik ko'rdilar. Har bir vazn toifasi bo'yicha saralab olingan iqtidorli bokschilar malakali murabbiy Marat Qurbonov qo'l ostida bir nechta muhim mashg'ulotlarda ishtirot etishdi. Natijada, musobaqaqa yo'l olgan 11 nafar sportchimizdan 8 nafari sovindorlar safidan o'rinn egalladi.

Jumladan, terma jamoamizning yetakchi bokschilari – Abdulhay Shorhamatov (-56 kg) va Kozimbek Mardonov (-75 kg) o'z vazn toifalarida barcha raqiblaridan ustun kelib, oltin medalga sazovor bo'ldi. Quvonarisi, har ikki bokschimizning musobaqadagi ishtiroti muxlis-u mutaxassislarda katta taassurot qoldirdi.

Iqtidorli bokschilarimiz – Sulaymon Latipov (-52 kg) hamda Mahmud G'oipov (-69 kg)ga final bahsida biroz omad yetishmadи va yakunda ular turnirning kumush medallari bilan taqqirdilar.

Bundan tashqari, Bobirmirzo Tolipov (-60 kg), Bektemir Meliqo'ziyev (-75 kg), Obidjon Tohirova (-81 kg) va Rahmatilla G'ofurov (+91 kg) o'z vaznlarida bronza medall sohibi bo'ldilar.

Bugun shuni quvonch bilan aytishimiz kerakki, bokschilarimizning ushbu muvaffaqiyati zamirida mamlakatimizda bolalar sportiga qaratilayotgan yuksak etibor. Siz farzandlarimizning iqtidor va qobiliyatizingiz ro'yobga chiqarish uchun yaratib berilayotgan sharh-sharoitlar mujassam. Shunday ekani, Siz han bo'sh vaqtini behuda sarflamay, ana shu imkoniyatlardan unumli foydalaning va sportda ulkan marralarni zabt eting.



Shoh MUHAMMAD

UZIB BERAYMI UZUM?

Aziz bolajonlar,
uzumning
shifobaxshligi haqida
ko'p bora eshitgansiz.
Ammo bu totli mevaning
hali biz bilmagan noyob
xususiyatlari bisyor ekan.

Uzumning asl vatani Yaqin Sharq mamlakatlari bo'lib, u qariyb 6-8 ming yil
ilgari paydo bo'lgan. Bu meva tarkibida S, A, B₁, B₂, B₅, B₆, B₉, E, P vitaminlari
bo'lib, uni natriy, kalsiy, fosfor, magniy, kaliy, temir, rux, mis va boshqa ko'rplab
moddalardan tashkil topgan haqiqiy kokteyl deyish mumkin.

Uzum kishilar organizmidagi moddalar almashinuvini yaxshilash bilan birga, nafas
olish yo'llarini tozalaydi, yurak qon-tomirlarini kengaytiradi. Shu bois, uni loringit,
bronxit kasalliklari iste'mol qilish foydali. Bundan tashqari, uzumni charchaganda,
kamqonlikda, oshqozon-ichak kasalligida yeyish tavsiya etiladi. U ishtahani ochadi,
ovqat hazm qilishni, yurak, buyrak faoliyatini yaxshilaydi.

O'zbekistonda uning Chillaki, Husayni, Razzoqi, Charos, Buvaki, Daroyi,
Shivilg'oni, Kishmish, Rizamat ota va boshqa turlari yetishtiriladi. Uzum sharbatini
kattalar bilan bir qatorda bolajonlar ham sevib iste'mol qiladi. Chunki bu
meva organizm uchun foydali hisoblanadi.

Manzura UBAYDULLAYEVA

MAQOLEARNI DAVOM ETТИRING


Do'stsiz boshim,
Oz so'zla,
Bilagi zo'r birni yiqar,

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

Onang'ri quyosh bilsang,
Tiksiz gul bo'limas,
Tilingda bo'lsa boling,
Ish quroling soz bo'lsa,
Ilm baxt keltirar, bilim ...

CHIZIQLAR YORDAMIDA

Quyidagi aylanalardagi harflarda Hadisi shariflardan biri ifodalangan. Uning
bosh harfini topib, chiziqlar orqali belgilab, biliib oling.



H. ORIPOV

tuzidi

8



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga
qrashishi bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Feruza JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rbinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib),
Sobiton TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV

21-iyul 2014

Gazetamizning navbatdag'i soni 2014-yil 4-avgustda chop etildi

Navbatchi
muharrir
Axtarmul
KARIMOV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'gli

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel/faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalarni tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 30967
Buyurtma – S 443



Qadrli o'quvchilar, bugun biz
sizga hikoya qilmoqchi bo'lgan
jonivorni «Cho'l kemasi», deya
ta'riflashadi. Bu qaysi hayvon
ekan, deb o'layotgandirsiz-a?
Ha, topdingiz, bu tuyu!

SAHRO KEMASI

Yovvoyi tuna faqat Mo'g'ulistonning qalin butazor cho'llari bag'rida hayot
kechiradi. U asosan, tikanli butalar, saksuvullarning yosh novdalari bilan oziqlanadi.
Tuya suvsizlikka eng chidamli hayvon hisoblanadi. Uning o'ziga xos ko'rinishdag'i
o'rakchali odatda ikkita, ba'zilarida esa bittadan bo'ladi.

Dromedar tuna deb nomlangan bir o'rakchli tuna Afrika sahrolarida yashaydi.
Uning oyoq kaftlari keng, tekis va serqadoq bo'ladi. Bo'yni va oyoqlaridagi
qadoqsimon yostiqchalar esa uni qumming qaynoq taftidan asraydi.

Tuya organizmi svuni o'ziga xos tarzda tejaydi. Jaziramada uning tana harorati
41°C darajaga yetadi, lekin terlamaydi. U tanasining uchdan bir qismiga teng miqdorda
suv ichishi mumkin.

Tuya oziq va svuni o'rakchalariga yog' ko'rinishda zaxira sifatida g'amlaydi. Bu zaxira
uning uzoq vaqt suv ichmay, ovqat yemay bardam, tolmasdan yurishiga xizmat qiladi.

Tuyalar uyur holda hayot kechirishadi va ularga ota tuna sardorlik qiladi. Ona
tuya yilda bitta bo'taloqni dunyoga keltiradi.

ZUBAYDA tayyorladi

QIZIQARLI MA'LUMOTLAR

D. I. Mendeleyev jadvalida XIII
asrda 11 ta, XVIII asrda 31 ta,
1850-yilda 59 ta element
ma'lum bo'lgan. Hozirgi
vaqtida esa 114 ta element
ma'lum.

bir joyga yig'ilsa, uning
diametri 1500 kilometr
bo'ladi. Agar dunyodagi hamma
suv Yer shari bo'ylib bir
tekisda yoyilsa, u holda suv
qatlaming qal'linligi 4
kilometrga yetadi.

Mendeleyev oilaning kenjatoyi
bo'lgan. U Ivan Pavlovich
Mendeleyevning o'n uchinchi
farzandi edi.

Sayyoramizdag'i barchasi suv

YONG'INDAN SAQLANING!



Bugungi kunda kundalik hayotimizni «zangori olov»siz tasavvur etish qiyin. Undan to'g'ri foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish xavfsizlikni ta'minlaydi. E'tiborsizlik oqibatida chiqqan yong'in ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilishda gaz plitasi
o'matilgan xonani tez-tez shamollatib turish, gaz va
ko'mir yoqiladigan pechkalar mo'risi yiliga kamida bir
marotoba tozalanishiha e'tibor berish lozim. Mazkur
texnika vositalarini foydalilanligan xona derazalar
darchasi doimo ochiq bo'lishi zarur. Maishiy
texnika vositalarining yonida kensin, kerosin
kabi tez alanganaligida yonilg'ilarni
saqlamaslik muhimdir. Shuningdek, gaz
ballonlari plitadan 0,5 metr, boshqa isitish
qurilmalaridan esa 1 metr uzoqlikda bo'lishi, rezina ichaklardan foydalanmaslik,
gazni uzoq vaqt yoqilgan holda qoldirmaslik kabi qoidalarga rioya qilish talab etiladi.

Rustam NAZAROV,
Chilonzor tumani IIB YOXB kichik inspektori